

O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Hotamova Nigina Islomovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati, zamonaviy ta'lim jarayonidagi roli hamda bu borada qo'llaniladigan uslub va yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va doimiy kasbiy rivojlanishi natijasida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, kasbiy kompetensiya, rivojlanish, ta'lim sifati, innovatsion texnologiyalar.

Abstract: This article analyzes the importance of developing a teacher's professional competence, its role in the modern educational process, and the methods and approaches used in this regard. It also highlights ways to improve the effectiveness of education through teachers' self-improvement, use of innovative technologies, and continuous professional development.

Keywords: teacher, professional competence, development, quality of education, innovative technologies.

Kirish:

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy salohiyati va malakasiga bog'liq. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, izlanish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantiruvchi asosiy shaxsdir. Shu boisdan, pedagoglarning doimiy ravishda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism:

Ma'lumki, bugungi kunijtimoiy jadallashuv jarayonida insonlar o'z ish faoliyatlari va kundalik turmush tarzini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qila olmaymiz. Shuningdek, san'at sohasi ham faqar amaliy ijodkorlik bilan rivoj topsada hozrgi zamon talabidan kelib chiqqan holda usta rassomlar o'z vaqtlarini tejash va shogirdlariga tez va oson tushuntirish vao'rgatish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish va xorijiy tilni bilishi bugungi kun talabi bo'lib qolmoqda. Yangi davrga qadam qo'yish asnosida yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev tashabbuslari bilan keng fikrlash doirasiga ega, bilimlarni chuqur egallagan, sohasida yetuk va davr talabiga javob bera oladigan shaxslarga bo'lgan etibor ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida qayta isloh qilingan va sifatli tashkil etilgan ta'limni joriy etish masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Malakali kadrlarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj ishlab chiqarish korxonalari paydo bo'lgan, sanoat sohasi rivojining ilk bosqichlarida yuzaga kelgan bo'lsada, hanuzgacha o'z

20-Fevral, 2025-yil

dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. Buning asosiy sabablari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga bog‘liq ravishda yangidan-yangi yo‘nalishlar, ixtisosliklarning paydo bo‘lishi, ular bo‘yicha kadrlar tayyorlash zaruriyatining vujudga kelishi, o‘zgaruvchan, tezkor davrda mutaxassislarning kasbiy bilim, malaka va mahoratlarini izchil ravishda oshiribborishga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishi, shuningdek, mutaxassis sifatida mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardosh bera olishga bo‘lgan talabning ortishi sanaladi. Shunday bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ularga faqat ijodiy qobiliyatini o‘stirishga e‘tibor qaratmasdan ularga zamonaviy texnologiyalardan faoyatlri jarayonida foydalanish kompetensiyalarini ham o‘rgatish zarurdir. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san‘at fanini o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda nafaqat san‘atga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, o‘quvchida nafosatni shakllantirishga ko‘maklashadi balki, ulardan olingan bilimlarni uzoq vaqt yodda saqlab qolish hamda kelajakka oid bilim va malakalarni shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, yangi bilimning aktualligi u o‘zlashtirilgan davrdan boshlab 3-5 yilni tashkil qiladi. Raqamli qurilmalardan unumli foydalanish esa mustaqil izlay olish, kerakli ma‘lumotni qisqa muddat ichida qidirib topish, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida muntazam fikr almashib turish kabi imkoniyatlarni yaratib berish orqali ma‘lumotlarni muntazam takrorlanib turishini ta‘minlaydi va shu orqali talabalarda “mustahkam bilim” shakllanishini ta‘minlaydi. Xususan talabalarga multfilm yaratilish jarayonlari aks ettirilgan videoroliklar ko‘rsatilsa, multfilm qahramonlarining ijobiy va salbiy xislatlari, ranglar va chiziqlar plastikasining jozibadorligi hamda uning yaratilish jarayonidagi qiziqarli va mashaqqatli rassom mehnatidan talabalar ilgayidi va taassurotga ega bo‘ladilar. Bu esa kitob grafikasi fanining zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. T.E. Isaeva tomonidan XXI asr o‘qituvchisining kasbiy-shaxsiy kompetensiyasining mazmuni batafsil ta‘riflangan va asoslab berilgan. Muallif kompetensiyalarni quyidagicha guruhlagan: moslashuvchan-zamonaviy kompetensiyalar; ijtimoiy kompetensiyalar; ijtimoiy-tashkiliy kompetensiyalar; kasbiy (maxsus fanlar hamda xususiy metodika bo‘yicha) kompetensiyalar– o‘qitiladigan fanning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va o‘qituvchining o‘ziga xos bo‘lgan pedagogik tizimiga moslab tanlanadigan bilim, ko‘nikmalar, o‘qitish metodlari, kasbiy-korporativ tajribani uzatish usullarining majmui; kommunikativ kompetensiyalar qadriyatlarga asoslangan har qanday sharoitda ham insonning “o‘zligini” saqlab qolishini ta‘minlaydigan.

Kompetensiyaning mohiyati va tarkibiy qismlari: O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi pedagogik, metodik, kommunikativ va texnologik qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi. Bular o‘qituvchiga o‘quv jarayonini samarali tashkil qilish va ta‘lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Rivojlantirish yo‘llari va usullari:

- Malaka oshirish kurslari va treninglar;

- Mustaqil o'qish va ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- Innovatsion texnologiyalar va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash.

Texnologiyalarning o'zni: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi. Masofaviy ta'lim, interaktiv darslar va virtual laboratoriyalar bu boradagi samarali vositalardir.

Xulosa:

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Doimiy o'rganish, ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali o'qituvchilar o'z faoliyatlarini samarali tashkil etishi hamda kelajak avlodga sifatli ta'lim berishi mumkin. Shu sababli, ta'lim tizimida o'qituvchilarning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR:

1. Olimov, T. H. (2019). Spiritual and moral aspects of the formation of civil culture in future specialists of higher education. Theoretical & Applied Science, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. Pedagogical skill-Bukhara, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. Pedagogical skill-Bukhara, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent, 4.
5. Olimov, T. (2020). Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo'nalishlari. Fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi, 1(1), 20-27.
6. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O 'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Ilm-fan va ta'lim, 1(7).
7. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O 'smirlarda stressli vaziyatlarda koping xulq-atvor strategiyalari namoyon bo 'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Ilm-fan va ta'lim, 1(7).
8. Olimov, T. The role of national spirituality and values in the development of civil culture in future specialists with higher education.